

## O'ZBEKISTONDA REKLAMA TARQATISHGA IXTISOSLASHGAN OAVLARNING HUQUQIY MAQOMI

**Madina Ochilova**

*Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** *Tezisdagi reklama xususiyatiga ega ommaviy axborot vositalarining O'zbekiston qonunchiligidagi maqomi, bunday OAVlarga qo'yiladigan talablar va ularning O'zbekistonda tarqatilishiga oid masalalar muhokama qilinadi.*

O'zbekiston qonunchiligi ommaviy axborot vositalari turlari ichida reklama xususiyatiga ega ommaviy axborot vositalari ham bor-ki, O'zbekiston media huquqi amaliyotida uning maqomi 30 yildir-ki o'zgarmaydi.

Bunday ommaviy axborot vositalariga misol sifatida turli kompaniyalar uchun reklama videolari, turli kontentlar, maqolalar tayyorlab, o'z platformasida e'lon qilib boradigan gazetalar, jurnallar va saytlarni tushunamiz. Ayniqsa, O'zbekistonda bu yo'nalishda ishlaydigan jurnallar faoliyati ko'zga tashlanadi.<sup>1</sup> Ular turli supermarketlar, xiyobonlar, restoran va kafelarda odamlarga bepul tarqatiladi. Ko'pincha faqat reklama materiallari chop etadigan jurnal va gazetalar kompaniyalar brendini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Raqamlashuv tezlashishi va internet dunyosi jadal rivojlanayotgani bois bunday OAVlar internetda faoliyat yuritishni boshlashdi. Masalan, You tube tarmog'ida ham faqat reklamalar tayyorlab joylaydigan kanallar bor.<sup>2</sup>

Agar O'zbekistonda reklama va Ommaviy axborot vositalariga doir qonunchilik tarixiga qarasak, sovet ittifoqi davrida reklama munosabatlari ichki savdo xalq komissarligining "Savdoni kengaytirish uchun reklama usullaridan foydalanish to'g'risida"gi qarori asosida tartibga solingan.<sup>3</sup>

Hozirda O'zbekistonda reklama munosabatlarini 2022-yil 29-sentabrda qabul qilingan "Reklama to'g'risida"gi Qonun tartibga soladi. Unda reklama tarqatuvchi subyektlarning – shu o'rinda ayrim ommaviy axborot vositalarining ham reklama tarqatishdagi huquq va majburiyatlar belgilangan. Masalan, reklama tarqatishga ixtisoslashmagan televideniya, radio, gazeta va jurnallar uchun ayrim alohida talablar bor.

<sup>1</sup> <https://topbusiness.uz/>

<sup>2</sup> <https://www.youtube.com/watch?v=Js9ziiY8-ME>

<sup>3</sup> Shepilova.G.G. СИСТЕМНО-ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ РЕКЛАМЫ В СРЕДСТВАХ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ. Avtoreferat. – T: Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti. Moskava,2011.

O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq, reklama xususiyatiga ega ommaviy axborot vositalari deganda deyilganda gazeta va jurnallarning nashr alohida soni hajmining 40 foizidan, tele va radio dasturlarda eshittirish va ko'rsatuv har bir soatining 10 foizidan ko'prog'ini reklama xabarlarini egallagan ommaviy axborot vositasi tushuniladi. Bu ta'rif 2022-yil 22-fevraldagi 86-sonli Vazirlar mahkamasi qarorida keltiriladi.<sup>4</sup> Shuningdek, reklama xususiyatiga ega ommaviy axborot vositalarini davlat ro'yxatidan o'tkazishdagi davlat boji bazaviy hisoblash miqdorining (330 000) 25 barobari, ya'ni hozirda 8 million 250 ming so'm etib belgilangan.

Biz milliy qonunchilikda reklama xususiyatiga ega ommaviy axborot vositalariga doir biror norma uchratmaymiz. Umuman, reklama xususiyatiga ega bo'lishi bo'lmasligidan qat'i nazar barcha reklama tarqatuvchi subyektlar "Reklama to'g'risida"gi Qonun<sup>5</sup> asosida ishlaydi. Qonunda reklamani tarqatish (joylashtirish) uchun axborotni to'liq yoxud qisman tayyor shaklga keltirishni amalga oshiradigan, O'zbekiston Respublikasining rezidenti yoki norezidenti bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs reklama tayyorlovchilar hisoblanadi. Reklama vositalari orqali reklama tarqatishni amalga oshiradigan, O'zbekiston Respublikasining rezidenti yoki norezidenti bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxslari reklama tarqatuvchilar sirasiga kiradi. Agar Qonundagi ushbu ta'riflardan kelib chiqsak, reklama tarqatishga ixtisoslashgan ommaviy axborot vositalari ham reklama tayyorlovchi va ham reklama tarqatuvchi hisoblanadi. Chunki bunday OAVlar mijoz bilan shartnoma shartlariga muvofiq, yo reklamani buyurtma asosida o'zi tayyorlaydi, yoki kompaniyalar tomonidan beriladigan reklama shunchaki tarqatib beradi. Qonunning 23-moddasida esa reklama subyektlarining huquq va mjaburiyatlari belgilab qo'yilgan. Shu sababli, reklama xususiyatiga ega ommaviy axborot vositalari ham ushbu normalarga tayangan holda faoliyat yuritadi.

Umuman, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonunga<sup>6</sup> muvofiq, ommaviy axborot vositalari deganda ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo'lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va (yoki) elektron tarzda (tele-, radio-, video-, kinoxronikal dasturlar, Internet jahon axborot tarmog'idagi veb-saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan (bundan buyon matnda chiqariladigan deb yuritiladi), qonunchilikda belgilangan tartibda ro'yxatga olingan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari hisoblanadi.

<sup>4</sup> <https://lex.uz/docs/-5871129?query=reklama%20xususiyatiga%20ega%20ommaviy#sr-1>

<sup>5</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-6052631>

<sup>6</sup> <https://lex.uz/docs/-1106870>

Ommaviy axborot vositalari va jurnalistlarning qonunchilikda o'ziga xos maqomi, majburiyat va huquqlari bo'lib, alohida ravishda jurnalistlarning kasb etikasi ham bor. Biroq faqat reklama tarqatish bilan shug'ullanadigan nashrlar ham shunday majburiyatlarga egami, ularning jurnalistlari ham umumiy jurnalistika etikasiga amal qilishi kerakmi, agar faoliyat faqat reklama tarqatishga oid bo'lsa, unda bunday tarqatuvchilarni ommaviy axborot vositasi deb baholash qanchalik asosli. Vaholan-ki, qonunchilikda bunday OAVlarning huquq va majburiyatlariga ham oydinlik kiritilmagan. Albatta, bu masalalar tadqiq qilinishi kerak bo'lgan va ilmiy huquqiy munozaraga arziydigan mavzulardir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://topbusiness.uz/>
2. <https://www.youtube.com/watch?v=Js9ziiY8-ME>
3. Shepilova.G.G. СИСТЕМНО-ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ РЕКЛАМЫ В СРЕДСТВАХ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ. Avtoreferat. – T: Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti. Moskava,2011.
4. <https://lex.uz/docs/-5871129?query=reklama%20xususiyatiga%20ega%20ommaviy#sr-1>
5. <https://lex.uz/uz/docs/-6052631>
6. <https://lex.uz/docs/-1106870>